

**AYBLOV XULOSASI ASOSIDA DASTLABKI TERGOVNI TUGATISH:
NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI**

**ЗАВЕРШЕНИЕ ПРЕДВАРИТЕЛЬНОГО СЛЕДСТВИЯ НА ОСНОВЕ
ОБВИНИТЕЛЬНОГО ЗАКЛЮЧЕНИЯ: ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ**

**COMPLETION OF THE PRELIMINARY INVESTIGATION BASED ON THE
INDICTMENT: THEORETICAL AND LEGAL FOUNDATIONS**

Huquqni muhfaza qilish akademiyasi magistratura tinglovchisi

Sapayeva Asal Alisher qizi

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada dastlabki tergovni ayblov xulosasi asosida tugatishning nazariy-huquqiy asoslari va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Unda ayblov xulosasining jinoyat protsessidagi o‘rni, uning mazmuni va tuzilishi, shuningdek, dalillarni to‘plash, tekshirish hamda baholash jarayonlari yoritiladi. Shu bilan birga, tergovni yakunlash bosqichida ayblanuvchining huquqlarini ta‘minlash masalalari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *dastlabki tergov, ayblov xulosasi, ayblanuvchi, jinoyat protsessual kodeksi, isbot qilish, ayblov e‘lon qilish.*

Аннотация: *В данной научной статье анализируются теоретико-правовые основы и практические аспекты завершения предварительного следствия на основе обвинительного заключения. Рассматриваются роль обвинительного заключения в уголовном процессе, его содержание и структура, а также процессы сбора, проверки и оценки доказательств. Вместе с тем освещаются вопросы обеспечения прав обвиняемого на стадии завершения следствия.*

Ключевые слова: *предварительное следствие, обвинительное заключение, обвиняемый, уголовно-процессуальный кодекс, доказывание, предъявление обвинения.*

Annotation: *This scientific article analyzes the theoretical and legal foundations and practical aspects of completing the preliminary investigation on the basis of an indictment. It examines the role of the indictment in criminal proceedings, its content and structure, and also covers the processes of collecting, verifying, and evaluating evidence. At the same time, issues related to ensuring the rights of the accused at the stage of completing the investigation are considered.*

Keywords: *preliminary investigation, indictment, accused, criminal procedure code, proof (burden of proof), bringing charges.*

KIRISH

Bugungi kunga kelib, jinoyatchilikka qarshi kurashish va qonun ustuvorligini ta‘minlash har qanday huquqiy davlatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda jinoyat protsessining muhim bosqichi bo‘lgan dastlabki tergov bosqichi alohida

o‘rin tutadi. Chunki aynan ushbu bosqichda jinoyat hodisasining barcha holatlari aniqlanadi, dalillar to‘planadi, tekshiriladi va baholanadi hamda shaxsning jinoyat sodir etgan yoki etmaganligi yuzasidan dastlabki xulosa shakllantiriladi. Zamonaviy jinoyat-protsessual huquqida dastlabki tergov bosqichi jinoyatni ochish va aybdorlarni aniqlashning fundamental asosi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining mohiyatiga ko‘ra, ushbu jarayon nafaqat tergov harakatlarining texnik yakuni, balki inson huquqlari va qonun ustuvorligini ta‘minlashning kafolatidir.

Ilmiy adabiyotlarda ta‘kidlanganidek, shaxsni ayblanuvchi tariqasida jalb qilish dastlabki tergovning “nafaqat eng yuqori, balki kulminatsion nuqtasi” hisoblanadi. Dastlabki tergovning tamomlash bosqichida ayblanuvchi sifatida jalb qilingan shaxsga nisbatan mantiqiy yakun sifatida ayblov xulosasi tuziladi. Mazkur hujjat jinoyat ishining mazmunini umumlashtiradi, to‘plangan dalillarni tizimlashtiradi va ayblanuvchining harakatlariga huquqiy baho beradi. Shu jihatdan ayblov xulosasi nafaqat tergov bosqichining yakunlovchi hujjati, balki sud muhokamasi uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi muhim protsessual vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, ayblov xulosasini tuzish va dastlabki tergovni tugatish jarayonida qonuniylik, asoslanganlik va xolislik tamoyillariga qat‘iy rioya etilishi talab etiladi. Aks holda, bu inson huquq va erkinliklarining buzilishiga, shuningdek, sudlov adolatining ta‘minlanmasligiga olib kelishi mumkin.[1] Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ayrim hollarda dalillarni yetarli darajada to‘plamaslik, ularni noto‘g‘ri baholash yoki protsessual tartiblarga rioya qilmaslik kabi kamchiliklar uchrab turadi. O‘zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual qonunchiligi tergovchidan ayblov e‘lon qilishda dalillarning ziddiyatsizligini va barcha shubhalar bartaraf etilganligini talab qiladi. Aks holda, asossiz yoki muddatidan oldin e‘lon qilingan ayblov aybsizlik prezumpsiyasi tamoyilining buzilishi sifatida baholanishi mumkin.

Asosiy qism

Dastlabki tergov bosqichi jinoyat protsessida muhim o‘rin tutadi, chunki aynan shu bosqichda jinoyat hodisasi, ayblanuvchining harakatlari va dalillar to‘liq aniqlanadi. Ushbu jarayonning yakuniy natijasi sifatida ayblov xulosasi tuziladi. Ayblov xulosasi jinoyat protsessining muhim institutlaridan biri bo‘lib, u dastlabki tergov bosqichining huquqiy yakuni sifatida yuzaga keladi. Ilmiy adabiyotlarda *ayblov xulosasi*- faqat vakolatli shaxslar (tergovchi va prokuror) tomonidan JPKda belgilangan shaklda tuziladigan protsessual hujjat bo‘lib, protsessual qarorlarning alohida turidir. Unda jinoyat ishi bo‘yicha tergov natijalari, sud muhokama qilish uchun asoslar borligi haqida xulosalar bayon etiladi. Ushbu xulosalar dastlabki xulosalar bo‘lib, sud uchun majburiy ahamiyatga ega emas.[2]

Nazariy jihatdan ayblov xulosasining mohiyatini to‘g‘ri anglash uchun dastlabki tergov bosqichining umumiy vazifalarini e‘tiborga olish zarur. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ayblov xulosasi mazkur da‘voni shakllantiruvchi emas, balki uni yakunlovchi va umumlashtiruvchi hujjat sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki ayblovning mazmuni, hajmi va chegaralari odatda ayblanuvchi sifatida jalb etish to‘g‘risidagi qarorda belgilanadi. Ayblov xulosasining vazifasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: jinoyat hodisasining mazmunini umumlashtirish, to‘plangan dalillarni tizimlashtirish va ayblanuvchining harakatlariga huquqiy baho berish. Shu bilan birga, ayblov xulosasi jinoyat ishining sudga

yuborilishi uchun asos yaratadi, chunki u tergov natijalarini rasmiylashtiradi va protsessual javobgarlikni aniqlaydi. Jinoyat protsessual kodeksning 379-moddasi (Ayblov xulosasi) ga binoan:

Ayblanuvchi va uning himoyachisini jinoyat ishidagi barcha materiallar bilan tanishtirib bo‘lgach, tergovchi, basharti ishni sudga yuborish uchun yetarli asoslar borligi to‘g‘risidagi fikri o‘zgarmagan bo‘lsa, ayblov xulosasi tuzadi.

Ayblov xulosasi tavsif-asoslantirish va xulosa qismlaridan iborat bo‘ladi. Tavsif qismida dastlabki tergovda aniqlangan holatlar: jabrlanuvchi, shuningdek ayblanuvchi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar; ayblanuvchining aybdorligini tasdiqlovchi dalillar, ayblanuvchining o‘zini himoya qilish uchun keltirgan vajlari va ularni tekshirish natijalari bayon qilinadi.

Xulosa qismida ayblanuvchining shaxsi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltiriladi hamda e‘lon qilingan ayblovning mazmuni Jinoyat kodeksining shu jinoyatni nazarda tutgan moddasi yoki moddalarini ham ko‘rsatgan holda bayon qilinadi.

Ayblov xulosasida bayon qilingan holatlarni tasdiqlovchi ish sahifalari ko‘rsatilishi kerak. Ayblov xulosasi qayerda va qachon tuzilganligi ko‘rsatilib, tergovchi tomonidan imzolanadi.

381-modda (Jinoyat ishining prokurorga yuborilishi) tartibida esa:

Tergovchi ayblov xulosasini imzolaganidan keyin jinoyat ishini darhol prokurorga yuboradi.[3]

Dastlabki tergovning yakuniy protsessual hujjati sifatida ayblov xulosasi yuridik, ijtimoiy-siyosiy, tarbiyaviy-profilaktik va tashkiliy ahamiyatga ega.

Ayblov xulosasining ahamiyati quyidagilardan iborat:

1. yuridik jihatdan u sud muhokamasining doirasini belgilab beradi;
2. texnik jihatdan u dalil materiallarni ma‘lum bir tizimga solib turadi;
3. tashkiliy jihatdan ayblanuvchi tomonidan sodir etilgan jinoyatning mohiyatini

tushuntiradi.[4]

Ayblov xulosasining yuridik ahamiyati shundan iboratki, tergovchi tergov qilish tugallangan jinoyat ishi bo‘yicha yakuniy xulosalarni ifodalashda, jinoyat protsessining protsessual jihatdan mustaqil ishtokchisi sifatida ish bo‘yicha to‘plangan dalillarni baholab, muayyan shaxslarni ishda ayblanuvchi tariqasida jalb qilish, jinoyatni kvalifikatsiya qilish, ayblov hajmi va jinoyat ishini sudga ko‘rish uchun jo‘natish masalalarini hal qiladi. Shuningdek, tergovchi tuzgan ayblov xulosasi sud muhokamasining hajmi va doirasini belgilab beradi. Sudga muhokama qilish uchun asos vazifasini ayblov xulosasi chiqarilgan va prokuror tasdiqlagan jinoyat ishi bajaradi. Ushbu qoida sudning ayblov xulosasida ko‘rsatilgan ayb qo‘yilgan va jinoyat ishi sud muhokamasiga tayinlangan shaxsga nisbatgina hukm chiqarishi mumkinligida amalga oshadi. Agar faoliyatning qandaydir voqeasi aylanuvchi tariqasida jinoyat ishida ishtrok etish uchun jalb qilish to‘g‘risidagi qaror va ayblov xulosasida aks etmagan bo‘lsa, sud sudlanuvchini ushbu qilmish sodir etganlikda aybdor deb e‘tirof eta olmaydi.

Tergovchining to‘plangan dalillarga muvofiq ravishda tuzgan qonuniy va asosli ayblov xulosasi ayblanuvchining himoyalani huquqini ta‘minlaydi va kafolatlaydi. Ayblov

xulosasining nusxasi ayblanuvchiga topshiriladi. Ayblov xulosasi bilan o‘z vaqtida tanishgan ayblanuvchi himoyaga avvaldan tayyorlanishi, suddagi o‘z pozitsiyasini o‘ylab ko‘rishi, himoyachisi bilan maslahatlashishi mumkin. Bundan tashqari ayblov xulosasi bayon etilgan jabrlanuvchi, fuqaroviy da’vo va da’voni ta’minlash uchun ko‘rilgan choralar haqidagi ma’lumotlar sudda javrlanuvchi, fuqaroviy da’vogar va fuqaroviy javobgarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning kafolatlaridan biridir.

Ayblov xulosasi obyektiv bo‘lishi, yuridik asoslangan bo‘lishi, shuningdek, stilistik va grammatik talablarga to‘liq javob bergan holda tuzilishi kerak. Ayblov xulosasini tuzishning uch xil usuli mavjud: xronologik, tizimli(sistematik) va aralash usullar.

Xronologik usulda jinoyat ishi holatlari tergovda qanday aniqlangan bo‘lsa, ana shunday bayon etiladi. Tizimli (sistematik) usul shundan iboratki, jinoyat ayblanuvchi tomonidan qanday sodir etilgan bo‘lsa, shunday tartibda bayon etiladi. Bu usul unchalik murakkab bo‘lmagan va to‘g‘ri dalillarga asoslangan jinoyat ishlarida qo‘llanadi. Aralash usulda esa xronologik va tizimli (sistematik) usullarning elementlari birga qo‘shilib keladi. JPKning 379-moddasining ikkinchi qismida ayblov xulosasi tavsif-asoslantirish va xulosa qismlaridan iborat bo‘lishi ko‘rsatilgan. Ammo JPKning 380-moddasiga binoan, ayblov xulosasiga tergovchining fikricha sud majlisiga chaqirilishi lozim bo‘lgan shaxslarning ro‘yxati, shuningdek, qo‘llangan ehtiyot choralari, gumon qilinuvchi va ayblanuvchi qancha vaqt qamoqda saqlanganligi to‘g‘risidagi, ashyoviy dalillar, fuqaroviy da’voni ta’minlash choralari, sud chiqimlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar ilova qilinadi deyilgan. Shuning uchun ayrim olimlarning fikricha, ayblov xulosasini quyidagi qismlarga bolish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- 1) kirish;
- 2) tavsif-asoslantirish;
- 3) xulosa;
- 4) yakuniy qism.

Quyidagilar kirish qismining elementlari hisoblanadi:

jinoyat ishi soni; sarlavha; ayblanuvchi(lar)ning familiyasi, ismi-sharifi; jinoiy qilmish kvalifikatsiyasi bo‘lgan JK moddasi; jinoyat ishi qo‘zg‘atilishining sabab va asoslari.[5]

Sarlavhada hujjatning nomi, ya’ni “Ayblov xulosasi” deb ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak. Undan keyin ayblanuvchining, agar ular bir nechta bo‘lsa ularning har birining familiyasi, ismi-sharifi ustun shaklida bayon etiladi. Agar bir nechta shaxs jinoyat sodir etishda ayblanayotgan bo‘lsa va ularning har birining roli har xil, ya’ni biri, tashkilotchi; boshqasi dalolatchi; uchinchi yordamchi bo‘lsa, ayblanuvchilarning familiyasi va ismi-sharifining ketma-ketligi ham shu tartibda qayd etiladi.

Ayblov xulosasining xulosa qismi tavsif asoslantirish qismi bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi va mantiqan undan kelib chiqqan bo‘lishi, xulosa qismi tavsif-asoslantirish qismi mazmuniga to‘liq muvofiq kelishi talab qilinadi.

Ayblanuvchi bir necha jinoyatni sodir qilishda ayblanayotgan bo‘lsa, unda har bir sodir qilgan jinoyati uchun alohida yuridik baho berilishi kerak. Guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyat ishi bo‘yicha har bir ayblanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar, ayblov shakli va JKning tegishli moddasi alohida ko‘rsatib berilishi shart.

Ayblov xulosasining yakunlovchi qismining elementlari quyidagilardir:

ish qaysi sudning sudloviga tegishliligi to‘g‘risidagi ma‘lumot;

ayblov xulosasini tasdiqlash uchun ish qaysi prokurorga yuborilayotganligi to‘g‘risidagi ma‘lumot;

ayblov xulosasini tuzgan shaxsning imzosi;

ayblov xulosasi tuzilgan joy va sana.

Amaliyotda ko‘pincha ayblov xulosasi va ayblanuvchi sifatida jalb etish qarori o‘rtasida mazmuniy o‘xshashlik kuzatiladi. Bu holat jinoyat-protsessual mexanizmning o‘ziga xos xususiyati bilan izohlanadi. Ya‘ni dastlab tergovchi tomonidan shaxsni ayblanuvchi sifatida jalb etish orqali unga nisbatan rasmiy ayblov e‘lon qilinadi, so‘ngra tergov yakunlangach, aynan shu ayblov ayblov xulosasida takroran ifodalanadi va yakuniy ko‘rinishga keltiriladi. Shunday qilib, ayblov xulosasi yangi ayblovni shakllantirmaydi, balki ilgari bildirilgan ayblovni mustahkamlaydi va protsessual jihatdan rasmiylashtiradi.

Dastlabki tergovni tugatishda ayblov xulosasining o‘rni ko‘p qirrali bo‘lib, u bir nechta muhim funksiyalarni bajaradi. Avvalo, u yakunlovchi funksiyani bajaradi, ya‘ni tergov bosqichining tugaganligini bildiradi va ushbu bosqichga xos bo‘lgan protsessual munosabatlarga yakun yasaydi. Shu bilan birga, ayblov xulosasi baholovchi funksiyani ham bajaradi, chunki unda to‘plangan dalillar tizimli ravishda tahlil qilinadi va ularning jinoyat ishini sudga yuborish uchun yetarliligi aniqlanadi.

Ayblov xulosasining yana bir muhim jihati uning huquqiy kafolat sifatidagi rolidir. Mazkur hujjat orqali ayblanuvchi, uning himoyachisi hamda boshqa protsess ishtirokchilari ayblov mazmuni bilan to‘liq tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa himoya huquqining amalga oshirilishiga xizmat qiladi, chunki ayblanuvchi o‘ziga qo‘yilgan ayblovning mohiyatini anglab, unga nisbatan o‘z pozitsiyasini shakllantiradi. Shu jihatdan ayblov xulosasi protsessual adolatni ta‘minlashda muhim vosita hisoblanadi.

Bundan tashqari, ayblov xulosasi tashkiliy funksiyani ham bajaradi. Unda jinoyat ishiga oid barcha materiallar tizimlashtirilgan holda bayon etiladi, bu esa sud organlari uchun ishni ko‘rib chiqishda qulaylik yaratadi. Sud ayblov xulosasi orqali ishning mazmuni, dalillar tizimi va ayblov doirasi haqida umumiy tasavvurga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, ayblov xulosasi dastlabki tergovdan sud bosqichiga o‘tishning huquqiy asosini yaratadi. Ya‘ni u jinoyat ishining sudga yuborilishi uchun zarur bo‘lgan protsessual hujjat sifatida xizmat qiladi. Shu ma‘noda, ayblov xulosasini nafaqat tergovning yakuni, balki yangi bosqich — sud muhokamasining boshlanishiga sabab bo‘luvchi yuridik fakt sifatida ham baholash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ayblov xulosasi dastlabki tergovni tugatishning ajralmas elementi bo‘lib, uning nazariy-huquqiy mohiyati tergov natijalarini umumlashtirish, dalillarni baholash, ayblovni rasmiylashtirish va jinoyat ishini sud muhokamasiga tayyorlashdan iboratdir. Shu bilan birga, uni jinoyat protsessining keyingi bosqichiga o‘tishni ta‘minlovchi muhim protsessual vosita sifatida baholash zarur.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayblov xulosasi jinoyat protsessida dastlabki tergovni tugatishning markaziy protsessual vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb

etadi. U nafaqat tergov faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi, balki jinoyat ishini sud muhokamasiga tayyorlashda hal qiluvchi huquqiy mexanizm vazifasini bajaradi.

Nazariy-huquqiy tahlil asosida aniqlanishicha, ayblov xulosasining mohiyatini uni ayblovni shakllantiruvchi hujjat sifatida emas, balki ilgari shakllangan ayblovni umumlashtiruvchi va rasmiylashtiruvchi protsessual hujjat sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Chunki ayblovning mazmuni, hajmi va chegaralari asosan ayblanuvchi sifatida jalb etish to‘g‘risidagi qaror orqali belgilanadi, ayblov xulosasi esa ushbu ayblovni yakuniy shaklga keltiradi va sud muhokamasiga taqdim etadi.

Tadqiqot davomida ayblov xulosasining ko‘p funksiyali xususiyati asoslab berildi. Xususan, u yakunlovchi, baholovchi, huquqiy kafolatlovchi, tashkiliy hamda protsessual o‘tishni ta‘minlovchi funksiyalarni bajaradi. Ayniqsa, uning himoya huquqini ta‘minlashdagi o‘rni muhim bo‘lib, ayblanuvchi va uning himoyachisiga ayblov mazmunini to‘liq anglash hamda o‘z pozitsiyasini shakllantirish imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, amaliyotda ayblov xulosasi va ayblanuvchi sifatida jalb etish qarori o‘rtasidagi nomuvofiqliklar mavjudligi aniqlanib, bu holat jinoyat ishining qaytarilishiga sabab bo‘lishi mumkinligi qayd etildi. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun ushbu protsessual hujjatlarning o‘zaro uyg‘unligini ta‘minlash, ularning mazmunan aniqligi va barqarorligini kuchaytirish zarur.

Umuman olganda, ayblov xulosasi dastlabki tergovni tugatishning yakuniy bosqichi sifatida nafaqat o‘tilgan protsessual faoliyatni sarhisob qiladi, balki yangi bosqich — sud muhokamasining boshlanishi uchun zarur huquqiy asosni yaratadi. Shu bois uni jinoyat protsessida mustaqil nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim institut sifatida yanada takomillashtirish zarurati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Россинский С.Б. Обвинительное заключение: процессуальное предназначение // Вектор науки Тольяттинского государственного университета. Серия: Юридические науки. 2023.
2. Rahmonqulov A.X., Mirazov D.M. Dastlabki tergov: Darslik / Sh.T. Ikramovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012.
3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-y.).
4. Abdurashidov A.A. va boshqalar. Jinoyat-protsessual huquqi. Maxsus qism: darslik. – T.: TDYU nashriyoti, 2025.
5. Rajabov, B. X., Mamataliyeva, Sh. X. Jinoyat protsessida amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha klinik seminarlar: O‘quv qo‘llanma / B. X. Rajabov, Sh. X. Mamataliyeva; Toshkent davlat yuridik universiteti. – Toshkent: TDYU, 2022.
6. Миньковский Г.М. Окончание предварительного расследования и право обвиняемого на защиту. – Москва: Госюриздат, 1957.